

**ARTICLE INFO**Received: 21<sup>th</sup> April 2023Accepted: 28<sup>th</sup> April 2023Online: 29<sup>th</sup> April 2023**KEY WORDS**

Ta'lim tizimi, kasb standartlari, o'quv materiallari, loyihalashtirish, o'qitish.

**O'QUV MATERIALLARINI LOYIHALASHTIRIB O'QITISHDA KASB STANDARTLARINING O'RNI**<sup>1</sup>Izetaeva Gulbahar Keunimjaevna

Mehnat bozori tadqiqotlari instituti doktoranti, p.f.b.f.d(PhD), dotsent,

<sup>2</sup>Narbaeva Raziya Dauletbaeva"Matematik analiz" kafedrasи o'qituvchisi, Qoraqalpoq Davlat  
Universiteti,<sup>3</sup>Tadjibayev Rustam Tursunbayevich

Assistent o'qituvchi, Nukus Innovatsion institute.

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7878038>**ABSTRACT**

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda zamonaviy talablarga javob beradigan, zamonaviy mehnat bozoridagi o'zgarishlar sharoitida erkin moslashib, o'z faoliyati sohasida innovatsion g'oyalar va ilmiy yutuqlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishga qodir yuqori malakali professional kadrlarni tayyorlashga qaratilgan ta'lim tizimida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ular orasida bugungi ta'lim darajasiga javob beradigan o'quv materiallaridan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Shu tufayli, mazkur maqolaning asl maqsadi ta'lim tizimida o'quv materiallarini loyihalashtirib o'qitish va shu asnoda kasb standartlarini e'tiborga olishdan iboratdir. Aynan shu maqsadda tadqiqot davomida kasb standartlarining o'quv materiallarini loyihalashtirib o'qitishdagi o'rni chuqur tahlil qilindi va yakunda o'quv materiallarini loyihalashtirib o'qitishda kasb standartlari muhim ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatib berildi.

Bugungi kunda o'quv materiallarini loyihalashtirib o'qitishda kasb standarti bu ma'lum bir kasbiy faoliyat turini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan malakalarni, shuningdek, mehnat bozori talablarini muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur bo'lgan turli darajadagi professional kadrlarning kasbiy malakalariga nisbatan sifat mezonlari va talablarini tavsiflovchi eng asosiy hujjat [3, 126-128].

O'quv materiallarini loyihalashtirib o'qitishda kasbiy standartlar, mehnat bozori va ta'lim sohasi o'rtasidagi eng muhim bog'liqlik bo'lib, kadrlar iste'molchilari (ish beruvchi) va ta'lim sohasi mutaxassislarining mehnat bozori tomonidan belgilanadigan bilim, ko'nikma va malakalarni egallahsha imkon beradigan o'quv dasturlarini ishlab chiqish uchun birgalikda ishlashini talab qiladi, bu esa oxir-oqibat turli darajadagi malakali professional kadrlar tayyorlash sifatini ta'minlashga olib keladi.

O'quv materiallarini loyihalashtirib o'qitishda kasb standartlar gender tengligi, yoshi, etnik kelib chiqishi, madaniyati, urf-odatlari, yashash muhiti va boshqalarni hisobga olgan holda mehnat bozorining har qanday ishtirokchisi (ishchi, o'rta malakali mutaxassis,



muhandis, texnik xizmat ko'rsatuvchi xodim, davlat xizmatchisi, o'qituvchi, talaba) uchun tushunarli bo'lgan keng qamrovli, aniq va shaffof tarzda shakllantirilishi kerak.

Shunday qilib, o'quv materiallarini loyihalashtirib o'qitishda kasbiy standartlar mamlakatning ta'lif tizimini isloh qilishda, shuningdek, milliy malaka doirasini samarali qo'llashda, shu jumladan professional standartlarni ishlab chiqish kasbiy malakalarni rivojlantirishga qaratilgan modulli o'quv dasturlari orqali malakali ishchilar va o'rta malakali mutaxassislarni kasbiy tayyorlash bilan bog'liq malakalarni tavsiflash va ta'lif standartlarini ishlab chiqish bo'yicha amaliy qo'llanma bo'lib xizmat qiladi. Shu bois, ish beruvchilar va ta'lif muassasalarining samarali ijtimoiy sherikligini ta'minlash mamlakat iqtisodiyotining mavjud va rivojlanayotgan sohalari uchun talab yuqori bo'lgan kadrlar tayyorlash sifatini ta'minlashda muhim element hisoblanadi.

Sifatli tayyorlangan o'quv materiallar ta'lif tashkilotlari uchun nazariy bilim va amaliyat o'rtasidagi tafovutni yo'q qiladigan, mehnat bozori rahbarlari va professional uyushmalarga kasbiy standartlarni ishlab chiqish mas'uliyatini yuklaydigan tegishli dasturlarni ishlab chiqish uchun zarurdir. Shu munosabat bilan o'quv materiallarini loyihalashtirib o'qitishda kasb standartlarini ishlab chiqish ishchi va o'rta darajadagi yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonining barcha ishtirokchilari bilan birgalikda amalgalashirilishi kerak. Yuklangan vazifalarni muvaffaqiyatli va samarali amalgalashirish uchun asosiy tavsiya hujjati bo'lib xizmat qiladigan "professional standartlarni ishlab chiqish bo'yicha amaliy qo'llanma" taklif etiladi [2, 49-50].

O'quv materiallarini loyihalashtirib o'qitishda kasbiy standartlarni ishlab chiqish bo'yicha amaliy qo'llanma Shveytsariyaning "O'zbekistonda o'quv materiallarini loyihalashtirib o'qitishda kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish" loyihasi doirasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ta'lif sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi, uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi, qishloq xo'jaligi vazirligi va savdo-sanoat palatasi hamkorligida tayyorlandi.

O'quv materiallarini loyihalashtirib o'qitishda kasbiy standartlar talabalarning o'qish majburiyatlarini aniqlash, ularning kasbiy o'sishini rejalashtirish, kasbiy tayyorgarlikni tashkil etish va malakasini oshirish, shunga mos ravishda xizmatlarning sifati va mahsuldarligiga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish, kadrlarni tanlash, joylashtirish va ularidan foydalanish, shuningdek menejerlar va mutaxassislarni attestatsiyadan o'tkazishda qabul qilingan qarorlarni asoslash uchun mo'ljallangan.

Mehnat bozori va ta'lif sohasi o'rtasidagi eng muhim bog'liqlik sifatida o'quv materiallarini loyihalashtirib o'qitishda kasb standartlar o'quv dasturlarining mehnat bozori talab qiladigan bilim, ko'nikma va malakalarga bo'lgan talabiga mos kelishiga erishish uchun ishlab chiqilgan bo'lib, natijada malakali ishchi xodimlarning kasbiy tayyorgarligi sifatini ta'minlashga olib keladi.

O'quv materiallarini loyihalashtirib o'qitishda kasbiy standartlarni ishlab chiqishda quyidagi muhim mezonlar boshqariladi va hisobga olinadi:

- davlatning o'rta va uzoq muddatli istiqboldagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendentsiyalari;
- mehnat bozori talablari;



- ishlab chiqarishda, shuningdek xizmat ko'rsatish sohasida ishlatiladigan ilg'or texnologiyalar, xom ashyo turlari va zamonaviy uskunalar [1, 32-34].

O'quv materiallarini loyihalashtirib o'qitishda kasbiy standartlar talaba va o'qituvchilarning o'zлari uchun bir xil darajada muhim hujjatdir. Yuqori sifatli ishlab chiqilgan kasbiy standartga ega bo'lган talabalar;:

- ma'lum bir kasb yoki lavozim uchun qanday bilim va ko'nikmalar zarurligini aniqlash;
- kasbiy darajani aniqlash va kasbiy malakani rivojlantirish;
- malaka darajasini oshirish va tegishli hujjat bilan tasdiqlash;
- kasbiy tayyorgarlik va qo'shimcha ta'limga bo'lган ehtiyoj va imkoniyatlarni baholash;
- martaba yo'llarini rejalashtirish;
- mehnat bozorida talabga ega bo'lish [5, 263-265].

Kasbiy standartlar mehnat bozori va ta'lim sohasi o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlaganligi sababli, ta'lim tizimi ulardan muvaffaqiyatli foydalanadi:

- ta'lim standartlarini yangilash;
- o'quv rejalar, dasturlari, modullari va o'quv materiallarini ishlab chiqish;
- ta'lim dasturlari bo'yicha talabalar olgan bilimlar va mehnat bozorida haqiqatda talab qilinadigan bilimlar o'rtasidagi tafovutni kamaytirish ish beruvchilarning talablarini muvaffaqiyatli qondirish;
- yoshlarni kasbga yo'naltirishga ko'maklashish.

**Xulosa.** Maqolada keltirilgan ma'lumotlarga tayangan holda shunday xulosaga kelish mumkin: kasbiy standartlar, mehnat bozori va ta'lim sohasi o'rtasidagi eng muhim bog'liqlik bo'lib, kadrlar iste'molchilari va ta'lim sohasi mutaxassislarining mehnat bozori tomonidan belgilanadigan bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga imkon beradigan o'quv materiallarini loyihalash uchun birgalikda ishlashini talab qiladi, bu esa oxir-oqibat turli darajadagi malakali professional kadrlar tayyorlash sifatini ta'minlashga olib keladi. O'quv materiallarini loyihalashtirib o'qitishda kasbiy standartlar talabalarning o'qish majburiyatlarini aniqlash va ularning kasbiy o'sishini rejalashtirishda katta ahamiyatga ega ekanligini maqolada keltirilgan ma'lumotlardan ko'rishimiz mumkin. Umumiyligida qilib aytadigan bo'lsak, kasbiy standartlar o'quv materiallarini loyihalashtirib o'qitishda muhim o'ringa ega.

### References:

1. Atayeva N. va boshqalar. Umumiyligida pedagogika. O'quv qo'llanma. – T.: Fan va texnologiya, 2011 yil.
2. Mavlonova R., To'rayeva O., Holiberdiev K. Pedagogika. – Toshkent: O'qituvchi, 2002
3. Rashidov H.F. va boshqalar. "Kasbiy pedagogika" blokini o'qitish metodikasi. /O'quv-uslubiy qo'llanma (Malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslari uchun). –T.: O'MKHTTKMO va UQTI, 2007. – 200 b.
4. Sarsenbayeva R.M., Doniev B.B. Umumiyligida pedagogika. /O'quv-uslubiy qo'llanma. Samarqand: SDCHTI, 2008. – 80 b.
5. Yo'ldoshev J., Hasanov S. Pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2009. – 608 bet